

Ya'qub Yusufning oldida



19:00 / 04.07.2019 3218

Ular (akalar) Yusufning ko'ylagi bilan Kan'onga kelganlarida, Ya'qub Yusufning hidini sezdi va: **“Albatta, men Yusufning hidini sezmoqdaman”**, dedi.

“Ular: «Allohga qasamki, sen eski adashuvingdasan”, dedilar.

Lekin Ya'qub rost gapirgan edi. **“Xushxabarchi kelgan chog'ida u (ko'ylak) ni uning yuziga tashlaganida, yana ko'radigan bo'ldi. U: “Sizlarga men, “Allohdan sizlar bilmaydigan narsani bilaman”, demaganmidim?!” dedi.**

Ular: “Ey otamiz, gunohlarimiz uchun istig'for ayt. Albatta, biz xatokorlardan bo'lgan ekanmiz”, dedilar. U: “Sizlar uchun Robbimga istig'for aytaman. Albatta, Uning O'zi mag'firat qilguvchi va rahmli Zotdir”, dedi”.

Ya'qub Misrga yetib kelganida, uni Yusuf kutib oldi. Ularning xursandligi va shodligi haqida so'ramay qo'ya qoling. Bu kun Misrda unutilmas va muborak kun

edi.

Yusuf ota-onasini taxtga ko'tardi. Barchalari Yusufga sajda qilib yiqildilar.

Yusuf: “Ey otajon, bu avval ko'rgan tushimning ta'biridir, Robbim uni haqqa aylantirdi. Men o'n bitta yulduzni ham quyosh va oyni ko'rdim, ularning menga sajda qilayotganlarini ko'rdim”, dedi.

Yusuf Allohga ko'p, go'zal hamd aytdi. Buning uchun Yusuf ulkan shukr qildi. Ya'qub va uning ahli Misrda uzoq vaqt qoldi. Ya'qub va uning ayoli Misrda vafot etdi.